
AUKTSIONGA QO'YILGAN YER IJARAGA BERILGAN EDI?

"Vodiy 24" sayti orqali "Farg'ona viloyati Rishton tumani "Mehnatobod" MFY hududidagi "16 yillik bog'" hokimiyat vakillari tomonidan " E-auksion" yo'li bilan boshqa shaxsga o'tkazilmoqda" deb nomlangan maqola yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz. Maqolada tilga olingan yer maydoni "Mehnatobod MMTP hududidagi Rishton agrosanoat kasb-hunar kolleji tasarrufidagi "Rishton fayz" o'quv tajriba xo'jaligi yer maydonlari bo'lib, fuqarolar undan bir yillik shartnoma asosida foydalanib kelishgan. Har yili shartnoma yangilangan. Rishton tumani hokimining 2019 yil 24-dekabr kungi 7010 sonli "Mehnatobod MMTP hududidagi Rishton agrosanoat kasb-hunar kolleji tasarrufidagi "Rishton fayz" o'quv tajriba xo'jaligi yer maydonlarini tuman hokimligi zaxira yer maydonlari hisobiga qaytarish to'g'risida"gi Qaror bilan, "Rishton fayz" o'quv tajriba xo'jaligiga ajratilgan 143a, 145, 146, 147, 148, 149, 150, 151, 153q-konturlaridagi jami 29,70 gektar shundan 22,01 gektar yekin yer maydoni, 4,59 gektar bog'zor, 2,62 gektar ariq-zovur, 0,20 gektar yo'l, 0,28 gektar boshqa yer maydonlari tuman hokimligi zaxira yer maydonlari hisobiga qaytarilgan. Tuman zaxirasiga qaytarilgan 143a, 148, 149, 150, 151, 153q-konturlaridagi jami 25,19 gektar, shundan 22,01 gektar ekin maydonlari, 2,50 gektar ariq-zovurlar, 0,2 gektar yo'l, 0,45 gektar boshqa yer maydonlari, tuman hokimining 09.06.2020 yildagi 680 sonli qarori bilan paxta-g'alla yo'nalishida "Zafarli yurish" fermer xo'jaligiga ajratib berilgan. Shundan so'ng 145, 146, 147 konturlardagi jami 4,71 gektar, shundan 4,59 gektar bog' maydoni, 0,12 gektar ariq zovurlari tuman hokimligi zaxira yer maydonlarida qolgan. Ushbu 145, 146, 147 konturlardagi jami 4,71 gektar yer maydoni Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 noyabrdagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 709-sonli qaroriga asosan "E-AUKSION" platformasida LOT 3090366-raqam bilan 04.10.2022-yil kuni tanlovga qo'yilgan va Elektron onlayn-auksion tanlov natijalari bo'yicha FA90 tartib raqamli ishtirokchi fuqaro Ummataliev Umidjon Usmonali o'g'li Lot 3090366 bo'yicha auksion tanlovi g'olibi deb topilgan.

Tegishli hujjatlar ilova qilinadi.

[232.pdf](#)

2022-10-17 15:39:12